


4-dars. Takrorlash. Uzunlik va perimetr



1. Ushbu **uzunlik birliklari** orasida qanday bog'liqlik borligini eslang. Sxemaning ma'nosini tushuntiring.



- a) 6 santimetrda necha **millimetr** bor?
- b) 3 detsimetrda necha **santimetr** bor?
- d) 7 metrda necha **detsimetr** bor?



2. Ifodalang:

- a) **santimetrlarda**: 7 m 2 dm 3 cm, 6 m 5 cm, 8 m 4 dm;
- b) **millimetrlarda**: 3 dm 4 cm 8 mm, 9 dm 8 mm, 1 dm 7 cm;
- d) **metrlarda**: 300 cm, 40 dm, 200 dm;
- e) **detsimetrlarda**: 60 cm, 400 mm, 1 m 6 dm.



3. Kesmalarning uzunligini **santimetr** va **millimetrlarda** o'lchang. Kesmalarni uzunliklarining ortib borishi tartibida ayting.



4. Qoyalarga chiquvchi kishi safar uchun ikki bo'lak arqon oldi. Birinchi arqonning uzunligi 9 m, ikkinchi arqonning uzunligi esa birinchisidan 54 m uzun. Ikkinchi arqonning uzunligi birinchisidan necha marta uzun?



5. Ifodalarning qiymatini hisoblang va ularni taqqoslang.

- a) $1 \text{ dm } 6 \text{ cm } 2 \text{ mm} + 3 \text{ dm } 8 \text{ cm } 5 \text{ mm}$ $5 \text{ dm } 3 \text{ cm } 8 \text{ mm}$
- b) $7 \text{ dm } 5 \text{ cm } 3 \text{ mm} - 4 \text{ dm } 2 \text{ cm } 5 \text{ mm}$ $2 \text{ dm } 5 \text{ cm } 3 \text{ mm}$
- d) $3 \text{ m } 2 \text{ dm} + 4 \text{ dm } 8 \text{ cm}$ $4 \text{ m } 6 \text{ dm } 2 \text{ cm}$
- e) $8 \text{ m} - 3 \text{ m } 4 \text{ dm } 5 \text{ cm}$ $4 \text{ m } 6 \text{ dm } 5 \text{ cm}$




6. Tomonlari 5 cm va 3 cm bo'lgan **to'g'ri to'rtburchak** chizing. Uning yoniga bo'yi undan 2 cm katta, eni esa 1 cm kichik bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing. Bu to'g'ri to'rtburchaklarning perimetrlarini taqqoslang.



7. Xaritada sayohat yo'nalishi **siniq chiziqlar** bilan tasvirlangan.
- Yo'lning alohida qismlarini o'lchang. Uning xaritadagi uzunligini toping.
 - Agar xaritadagi 1 cm joy 100 m masofani bildirsa, yo'nalishning haqiqiy uzunligi qanday?



8. Minerallar saqlanadigan javon tomonlari 1 m bo'lgan kvadrat shaklidagi yashiklardan yig'ilgan. Javonning cheti bo'ylab **ko'k** tasma yelimplash kerak. Necha metr tasma kerak bo'ladi?



9. Aziza uyning kirish yo'lagidan muyulishgacha 247 qadam, muyulishdan maktab darvozasigacha esa undan 167 qadam ko'p yurdi. U uyning kirish yo'lagidan maktab darvozasigacha jami necha qadam yurgan?

10. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

- $3\text{ m } 6\text{ dm } 2\text{ cm} + 5\text{ m } 7\text{ dm } 8\text{ cm}$
- $9\text{ m } 4\text{ dm } 2\text{ cm} - 3\text{ m } 6\text{ dm } 6\text{ cm}$
- $2\text{ dm } 7\text{ cm } 6\text{ mm} + 1\text{ dm } 8\text{ cm } 9\text{ mm}$
- $8\text{ dm } 2\text{ cm } 1\text{ mm} - 4\text{ dm } 3\text{ cm } 5\text{ mm}$

